This is not registered version of TotalDocConverter
Asab kasalliklari shifokori huzuriga xotinini olib kelgan kishi hasratini to'kib solib yordam so'radi. Shifokor bemorni ko'zdan kechirar ekan savol berdi:
- O'zi parrandachilik mahsuloti, ranggi oq narsa nima?
- Tosh,- dedi bemor.
- Mana shunaqa ahvol, - dedi er xo'rsinib.
- Tovug'ingiz tuqqan narsa, usti qattiq, ichi suyuq, - dedi shifokor bu gal tushuntiribroq - rangi oppoq, nima?
- Oppoq tosh.
- E-e, - dedi er xunobi oshib.
- Bo'ldi, - dedi doktor, - bemorni olib chiqavering, davolanish uchun yo'llanma yozib beraman.
Xotinini tashqariga olib chiqqach, er xonaga qaytib kirib shifokordan so'radi:
- Bir narsani so'rasam maylimi, do'xtir?
- Bemalol.

- Aytingchi, haligi so'raganingiz nimaydi o'zi?